

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrdagi "2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 490-sonli buyrug'ida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida joriy yil 16-18-aprel kunlari Respublika ixtisoslashtirilgan otorinolaringologiya va bosh-bo'yin kasalliklari ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tomonidan o'tkazilgan "Otorinolaringologiya va bosh-bo'yin kasalliklari dolzarb muammolari" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

HISOBOTI

1. Anjuman mavzusi. "Otorinolaringologiya va bosh-bo'yin kasalliklari dolzarb muammolari", "Актуальные проблемы оториноларингологии и болезней головы и шеи".

2. Anjuman maqomi. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman.

3. Ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanni o'tkazish uchun asos bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari yoki boshqa manbalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, farmonlari, Vazirlar Mahkamasining farmonlari va farmoyishlari hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining qator buyruq va ko'rsatmalari asos qilib olindi.

4. Anjumanning ilmiy yo'nalishi, maqsad va vazifalari.

"Otorinolaringologiya va bosh-bo'yin kasalliklari dolzarb muammolari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazishdan asosiy maqsad otorinolaringologiya va bosh-bo'yin kasalliklari sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarning so'nggi natijalarini taqdim etish, tadqiqotlarning tendentsiyalari va eng istiqbolli yo'nalishlarini va ularning natijalarini amaliy amalga oshirish yo'llarini aniqlash, axborot maydonini kengaytirish va turli profildagi ilmiy va tibbiyot muassasalari o'rtasidagi o'zaro aloqa o'rnatishdan iborat.

Anjumanda otorinolaringologiya va bosh va bo'yin kasalliklari sohasidagi O'zbekistonning yetakchi olim va mutaxassislari, yetakchi xorijiy ekspertlarning ma'ruzalari tinglanadi, shuningdek, anjuman doirasida hamkorlik va malaka oshirish to'g'risidagi memorandumlar imzolandi. Anjuman doirasida dori vositalari, tibbiy asbob-uskunalar va tibbiy adabiyotlar ishlab chiqaruvchilari ko'rgazmasini o'tkazildi.

Anjumanning ilmiy yo'nalishlari: tibbiyotdagi axborot texnologiyalari, tashxislash va davolash, LOR a'zolari kasalliklari bilan og'riqan bemorlarni tekshirish va davolashda zamonaviy ob'ektiv usullar, asboblari va materiallar, otorinolaringologiyadagi innovatsiyalar, jumladan molekulyar genetik tadqiqotlar, yuqori texnologiyali usullar, LOR-a'zolari va bosh-bo'yin kasalliklari bilan og'riqan bemorlarni jarrohlik reabilitatsiya qilish hisoblandi.

5. Muhokama qilinadigan muammolar.

Respublikamizdagi iqtidorli yoshlarni innovatsion g'oyalari va ishlanmalarini amalga oshirishning muammolari va yechimlari bo'yicha o'zaro fikr almashish.

6. O'tkaziladigan anjumaning Davlat ilmiy-texnika dasturlari, xalqaro ilmiy hamkorlik dasturlari bilan bog'liqligi.

Anjuman iqtidorli yoshlar ishtirokidagi Davlat ilmiy-texnik dasturlar doirasida bajarilayotgan loyihalar hamda xalqaro ilmiy loyihalar bilan uzviy bog'liq.

7. Anjuman natijalaridan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik. Anjumanda respublikamizdagi iqtidorli yoshlarning innovatsion g'oyalari va ishlanmalarining ilmiy asoslarini muhokama qilish natijasida ularni ilmiy yo'naltirish imkonini beradigan ilmiy xulosa va tavsiyalar tayyorlanadi.

8. Anjumanda yosh olimlar, magistrlar, mutaxassislar, mustaqil izlanuvchilar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ishtirok etishi.

Mazkur xalqaro anjumanda ishtirok etish uchun Italiya, Isroil, Rossiya, Belarus, Qozog'iston va boshqa xorijiy davlatlarning nufuzli oliy ta'lim muassasalari va tashkilotlaridan olimlar va professor-o'qituvchilari, shuningdek, mamlakatimiz viloyatlaridan otorinolingologiya bo'yicha yetakchi olim va mutaxassislar taklif etildi.

9. Anjumanni o'tkazishda respublikada mavjud soha tashkilotlarining ishtiroki.

Anjumanda oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarning yetakchi mutaxassislari va yetuk olimlari, professor-o'qituvchilari va iqtidorli yoshlari hamda yosh izlanuvchilar ishtirok etishdi.

Anjumanda Sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari Davron Taxirovich Sultonov tabrik so'zini o'qib, mehmonlarni yubiley munosabati bilan qutladi va tadbirni ochib berdi. Otorinolingologiya sohasida tibbiy yordam sifatini oshirish, aholining ehtiyojmand qatlamini yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar bilan qamrab olishni kengaytirish, nodavlat tibbiyot tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, davlat muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, tibbiyot kadrlarini tayyorlash va otorinolingologiya fanini rivojlantirish maqsadida muhtaram Prezidentimizning 2023 yil 1 avgustdagi PQ-255-sonli qaroriga asosan Respublika ixtisoslashtirilgan otorinolingologiya va bosh-bo'yin kasalliklari ilmiy-amaliy tibbiyot markazining ochilganligi shu sohani rivojlantirishga qo'yilgan qadamlardan biri bo'lganligini alohida ta'kidladi.

Shundan so'ng, institut jamoasini qutlash uchun Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektori Daminov Botir Turg'unpo'latovich, Respublika ixtisoslashtirilgan otorinolingologiya va bosh-bo'yin kasalliklari ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori Ulug'bek Saidakramovich Xasanov, xorijiy mehmonlardan Desiderio Passali (Italiya), Georgiy Tavarkiladze (Rossiya), Tulebayev Rais Kajkenovichlar (Qozog'iston) so'zga chiqib, anjuman ishtirokchilarini tabriklashdi.

Anjuman 3 kun davomida juda qiziqarli o'tdi. 2025 yil 17 aprel anjuman davomida "Yosh olimlar tanlovi" ham o'tkazildi. Unga ko'ra, sovrinli o'rinlarga qimmatbaho sovg'alar berildi.

Anjuman yakunida iqtidorli yoshlar bilan seleksion ishlarni olib borish va ularni istiqbolli ilmiy mavzular bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarga jalb etish ko'lamini yanada kengaytirish hamda yetakchi tibbiyot muassasalari bilan hamkorlikda mutaxassislik fanlarini interaktiv usullarda o'qitilishini tashkil etish, ilmiy laboratoriyalarda doimiy sohalarning zamonaviy texnologiyalari bo'yicha yangiliklarini o'zlashtirishga kelishib olindi.

**Ilmiy ishlar bo'yicha
direktor o'rinbosari**

U.N.Voxidov